

ELEKTR ENERGIYASI VA UNI TEJASH USULLARI

Mahkamova Madinahon Jasur qizi

Andijon davlat pedagogika instituti

Aniq va tabiiy fanlar fakulteti

Fizika va astronomiya yoʻnalishi 1 bosqich talabasi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada elektr energiyasining turlari, undan qanday foydalanish va elektronni tejash haqida fikr yoritilgan. Elektrni nimalardan olish va maishiy texnikalarning elektrni tejovchi turlari shu bilan birga elektrni qanday yollar bilan olish usullari haqida tanishasiz.

Kalit sózlar: Elektr, IES, GES, IEM, AES, diodli lampa, quyosh panellari, Shamol generatorlari.

Bugungi kun dolzarb mavzularidan biri Elektr energiyasi hisoblanadi. Elektr energiya zaxitasi tugovchi energiyalar turiga kiradi. Uni tejab ishlatish har bir insonning burchi hisoblanadi. Hozirda Elektr energiyalarini tejash maqsadida quyosh panellari ishlatilmoqda. Lekin har bir honadonda 1 tadan koʻp chiroq yonib tursa har qancha koʻp zaxitasi bólsa ham yetmaydi.

Elektr energiyasi issiqlik Elektr stansiyalarida (IES), gidroelektr stansiyalarda (GES), issiqlik elektr markazlarida (IEM), atom Elektr stansiyalarda (AES) va noanʻanaviy Elektr energiyasi olish stansiyalarida ishlab chiqariladi. Jahonda Elektr energiyaning 70 foizi IESlarda ishlab chiqariladi. Elektr energiyasini ishlab chiqarishning asosiy printsiplari 1820-yillar va 1830-yillarning boshlarida ingliz olimi Maykl Faraday tomonidan kashf etilgan. Elektrdan foydalanishning Yana bir usuli suv hisoblanadi. Energiya ishlab chiqarish korxonalarida daryolarda qurilgan gidroelektr stansiyalar (GES) hisoblanadi. Elektrni asrash uchun

avvalambor chóg‘lanma lampalarni oddiy energiya tejovchi diodli lampalarga almashtirishimiz kerak, kerak bólmagan paytda ortiqcha chiroqlarni óchirib yurishimiz kerak. Diodli lampalar oddiy lampalarga qaraganda 25-80 foizga Kam energiya sarflaydi va 3-25 barobar kóproq hizmat qiladi.

Elektr orqali ishlovchi maishiy texnikalarni ham sotib olganda A+ yoki A++toifasidagi qurilmalarni tanlash tavsiya etiladi. Chunki ular 50 foizgacha kamroq energiya sarflaydi.

Bizga Elektr energiyasini yetkazib berish uchun qanchadan qancha insonlar katta kuch sarflaydilar. Elektrni biz quyoshdan, shamoldan yoki suvdan olishimiz mumkin. Lekin uni keraksiz paytda óchirib qóyish uchun hech qancha kuch sarf etilmaydi. Quyoshdan Elektr olish uchun shamol generatorlaridan, suvdan Elektr olish uchun gidroelektr stansiyalaridan (GES) foydalanamiz. Gidroelektr stansiyalari(GES) ni asosan suv omborlari yaqinida quriladi. Shamol generatorlaridan esa asosan shamolli hududlarda foydalanishadi. Atom energiyasi xalqaro agentligining xabar berishicha, 1985-yil oxirida dunyoning 26 mamlakatida atom elektrstansiyalarida umumiy quvvati 248577 Mvt bo‘lgan 374 reaktor ishlab turgan. 1980-yilda dunyoda ishlatilgan elektr energiyasining 5,6 foizi, 1985-yilda 10,8 foizi va 1988-yilda 27 foiz atom elektr stansiyalarda ishlab chiqilgan.

Birinchi atom elektr stansiyasi Kaluga viloyatining Obninsk shahrida 27-iyun 1954-yilda ishga tushirilgan. Dunyodagi birinchi atom stansiyasi 48 yil ishlaydi. Gidroelektr stansiyalar (GES) qurilish haqida qaror 1942-yil 18-mayda qabul qilingan. 1951-yilda sanoat foydalanishiga qabul qilindi.

Gidroelektr stansiyalar (GES) chorvoq, Farhod va bo‘zsuv kanallari derivatsiya kanali yordamida hosil qilinadi.

Farhod Gidroelektr stansiyalari (GES) ----- Sirdaryoning o‘rta oqimida, Farhod gidrouzelida joylashgan gidroelektr stansiya.

Insoniyat suv energiyasi hamda bug‘ dvigatellaridan oldin, shamolnenergiyasidan foydalanib kelgan. Ko‘pgina shamol generatorlari sekundiga 3-4 m/s dam yuqori tezlikdagi shamol yordamida ishlaydi. Shamol generatirlari 8-25 m/s tezlikda esadigan

shamol yordamida ishlaydi. Shamol trubinalarining ikkita asosiy turlari mavjud: vertikal va gorizontal aylanish o'qli. Shamol generatorlari faqat shamoldan energiya ishlab chiqarib elektrni tejashga ham yordam beradi. Bunday qurilmalarni g asosiy ishchi qismi, shamol g'ildiragi hisoblanadi.

Agar uning birorta parragi sinib qolsa ham u harakatdan to'xtashi mumkin. Shamol g'ildiragining turlari ko'p hisoblanadi. Ularga misol sifatida 2 g'ildirakli, 3 g'ildirakli yoki 4 g'ildiraklilarini keltirishimiz mumkin. Shamol elektrostansiyalarda asosan eng samarali bo'lgan qanotli shamol g'ildiraklari qo'llaniladi. Zamonaviy shamol generatorlarining quvvati

6 MVtn(6000 kVt) gacha yetadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)

- 1) Hojinazar Nurmatov "Energiya Almashinuvi".
- 2) B.M. O'Imasova "Optika, Atom va Yadro fizikasi".
- 3) T Yu. Turdiyev "Zamonaviy fizikadan o'qitish texnologiyalar".